

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://uza.uz/uz/posts/25-01-2020>.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016.– № 37.– 426-м. <https://lex.uz/docs/3026246>.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010.– № 39.– 341-м. <https://lex.uz/ /1685726>.
5. Temirova M.M. “Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari” Fardu. ilmiy xabarlar- 2023 /№6 . (mahalliyOAK)
6. Джураева Н. Вояга етмаган шахсларни ғайриижтимоий ҳатти-ҳаракатларга жалб этишнинг сабаблари ва унга имкон берган шарт-шароитлар // Вояга етмаганларнинг ишларини юритиш масалалари: мавзусидаги илмий-амалий конференция масалалари тўплами. -Т., 2012. -Б. 118.
7. Антонян Ю.М. Причины преступного поведения. –М., 1992. –С. 114.
8. Клотниекс И.Э. Психология в семье. – М., 1991. – С 30-3

O‘ZBEKISTON SSRNING 1970-1980-YILLARDAGI EKOLOGOIK HOLATI VA UNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI.

Azimova Maftuna Muhammadaminovna

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

[Tel:+998888116757](tel:+998888116757)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRning 1970-1980-yillardagi ekologoik holati va uning aholi salomatligiga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan. Shunindek, maqolada 1970–1990-yillarda g‘o‘zaga ishlov berishning kimyoviy usullaridan keng foydalanilganligi, buning oqibatida mahalliy aholi orasida turli kasalliklarga chalinish holatlari ortib borganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud.

Kalit so‘zlar: aholi, ekologiya, sog‘liqni saqlash, kimyoviy moddlar, g‘o‘za, o‘g‘ir hastaliklar, paxta yakkahokimligi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatori tibbiyot tizimida ham ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi bilan O‘zbekistonda shakllanishi boshlangan demokratik fuqarolik jamiyati aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf etish, inson manfaatlarini himoya qilish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash kabi masalalarni o‘rganishni asosiy maqsad qilib belgilagan edi.

Sovet tuzimidan qolgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik muammolar mavjud edi. Ularning oqibatlarini bartaraf etish, yuzaga kelayotgan murakkab vaziyatlarning oldini olish hamda samarali yechimlar ishlab chiqish, xususan, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda yangilanayotgan jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini qaror toptirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining aniqlashicha, inson salomatligining 85-90 foizi hayot tarzi va atrof-muhitga bog‘liq⁷⁹. Mustaqillik arafasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining deyarli barcha sohalarida jiddiy muammolar yuzaga kelgan, ayniqsa, sog‘liqni saqlash tizimidagi holat o‘ta ayanchli ahvolda edi. Xususan, birgina O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida kuchli kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanish oqibatida qishloqlarda bolalar o‘limi keskin ortib borishi kuzatildi. Respublikada bolalar o‘limining ko‘rsatkichlari hattoki Chernobil zonasidagidan 1,5–2 va ayrim viloyatlarda 3–4 barobar yuqori edi. Respublikaning paxta yetishtiriluvchi tumanlardagi onalar va bolalar o‘limining miqdori paxta ekilmaydigan hududlarga nisbatan 3 barobar ko‘p bo‘lgan. Ushbu davrda Respublika hududida onkologik kasalliklar Sovet Ittifoqi bo‘yicha o‘rtacha darajadan 2–3, ich terlama 3–4, paratif 9–10 barobar ko‘proq uchragan. Respublika

⁷⁹ Hamshira. №2.2018.– B.3.

yuqumli sariq kasalligining ko‘pligi bo‘yicha Ittifoqda eng oldingi o‘rinlardan birini egallagan⁸⁰.

Agrar sohani rivojlantirish orqali iqtisodiyotni yuksaltirishni maqsad qilib olgan Sovet Ittifoqi rahbarlarini aholi salomatligini muhofaza qilish u yoqda tursin, kun sayin ortib borayotgan onalar va bolalar o‘limi, aholining turli kasalliklarga chalinishi ham tashvishga solmagan. Paxta yetishtirish uchun qulay bo‘lgan hududlar – Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida esa bu kabi salbiy holatlar yuqori darajada edi.

1980-yillarda vodiya aholisi orasida asosan, qishloq xo‘jaligidagi kimyoviy o‘g‘itlardan zaharlanish holati kuzatilsa, Respublika boshqa hududlarida bir nechta kimyo zavodlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Samarqand, Navoiy, Chirchiq shaharlaridagi korxonalardan zaharli tutunlarning tarqalishi mahalliy aholi sog‘lig‘iga katta xavf solgan. Ba‘zi hududlar aholisining 40 foizida asab sistemasi va jigarda buzilishlar borligi aniqlangan. Zavodlarda pestisidlar⁸¹ bilan ishlovchi har o‘n kishidan bittasida jiddiy kasallik belgilari sezilgan⁸².

Bundan tashqari, 1980-yillarning oxirida aholi bandligi masalasida talaygina muammolar to‘planib qolgan edi. Jumladan, birgina Farg‘ona viloyati aholisining mehnat o‘rinlarida bandligini tahlil etadigan bo‘lsa, 1990-yilda viloyatdagi mehnatga layoqatli 1 million 060 kishidan 716.2 mingi xalq xo‘jaligi, 240 mingi esa shaxsiy tomorqa va uy xo‘jaligida band bo‘lgan. Aytish mumkinki, aholing 70 foiz dan ziyodi og‘ir mehnat bilan band bo‘lganligi sababli sog‘lom turmush tarziga doim ham amal qilinmagan⁸³.

Sanitariya-muhofaza zonalari va tozalash qurilmalari yo‘qligi sababli respublikadagi shahar suv ta‘minoti hamda idoraviy ta‘minot sanitariya

⁸⁰ Abduxalimov A. Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi. –Toshkent “Nurafshon business” 2024 – B. 17.

⁸¹ Pestis – (lotincha) maraz, caedo – o‘ldiraman), zaharli kimyoviy moddalar – o‘simlik zararkunandalari va kasalliklari, begona o‘tlar, shuningdek, yog‘och, mahsulotlari, jun, teri zararkunandalari, uy hayvonlarining xavfli kasalliklari qo‘zg‘atuvchilariga qarshi kurashishda foydalaniladigan kimyoviy moddalar.

⁸² Abduxalimov A. Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi.–Toshkent “Nurafshon business” 2024 – B. 17.

⁸³ Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60–80-йилларида Фарғона водийси қишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2020. – Б. 23.

me‘yorlariga to‘g‘ri kelmas edi. Shahar markaziy ta‘minotidan olingan ichimlik suvi namunalari bakteriologik va kimyoviy me‘yorlarga javob bermagan. Bunday holat odamlar salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi va sanitariya me‘yorlariga rioya qilish, shuningdek, suv manbalarini tozalash va dezinfeksiya⁸⁴ tizimlarini yaxshilash zaruratini ko‘rsatar edi.

Dalil sifatida shuni qayd etish joizki, mustaqillikning dastlabki vodiy qishloq aholisining 70 foizi ichimlik suvi sifatida ochiq suv havzalardan foydalangan⁸⁵. Birgina Farg‘ona viloyatida ichimlik suvi bilan ta‘minlangan qishloq aholisi 6,7 foizni, Andijonda esa 2,9 foizni tashkil etgan⁸⁶. Namangan viloyatining geografik rel‘efdan yuqoriroqda joylashganidan ham ko‘rish mumkinki, ushbu hududda ham ahvol yaxshi bo‘lmagan. 1980-yilda Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi 12 ta kolxozdan faqatgina 5 tasi ichimlik suvi bilan ta‘minlangan xolos⁸⁷. Bunday ma‘lumotlar butun Respublikada bo‘lgani kabi, vodiy viloyatlarida ham qishloq aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash holati qoniqarsiz bo‘lganligini ko‘rsatadi. Farg‘ona vodiysida olib borgan so‘rovnomalarga ko‘ra, 1980-yillarga kelibgina qishloqlarda toza ichimlik suvi ta‘minlash bo‘yicha dastlabki ishlar yo‘lga qo‘yila boshladi⁸⁸.

Mustaqillik arafasida respublikada tibbiyot sohasida ko‘plab muammolar to‘planib qolgan bo‘lib, tibbiyot sohasi tarkibiy tizimining o‘zi zamon talablariga javob bermas va rivojlanishning miqdoriy ko‘rsatkichlariga asoslangan holda tashkil etilgan edi. Bu esa, o‘z navbatida, Respublika, ayniqsa, qishloq joylari aholisi uchun zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklab qo‘yar edi.

1980-yillar mobaynida sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rilgan zaruriy choralarga qaramay, ko‘rikdan o‘tkazilgan Respublika aholisining katta qismi atrof-muhitning

⁸⁴Дезинфекция (дез... ва инфекция), юкүмсийлантириш — юкүмли касалликларни кўзгатувчи микроорганизмлар (бактериялар, вируслар ва б.)ни йўқ қилиш. Бу ҳақда қаратг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2-том. — Тошкент: ЎЗМЕ, 2005. — Б. 158

⁸⁵ О‘збекистон Республикаси Илмий-техникaviy ва tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (keying o‘rinlarda — O‘z ITTH). R. 62-fond, 1-ro‘yxat, 392-ish, 70-varaq.

⁸⁶ O‘z ITTH Milliy arxivi. R. 62-fond, 1-ro‘yxat, 394-ish, 48-varaq.

⁸⁷ O‘z ITTH Milliy arxivi. R. 40-fond, 4-ro‘yxat, 51-ish, 24-varaq.

⁸⁸ Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60–80-йилларида Фарғона водийси қишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти... Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. — Андижон, 2020. — Б. 83.

buzilishi, ekologik tanglik va ijtimoiy-iqtisodiy turmush qiyinchiliklari tufayli ko‘plab kasalliklarga chalinganligini ko‘rsatdi. Bular orasida sog‘lig‘ida jiddiy muammosi bo‘lgan, shoshilinch davolashga muhtojlar, jarrohlik yo‘li bilan davolanadiganlar va fizioterapevtik⁸⁹ muolajaga talabgorlar ko‘pchilikni tashkil etgan.

Respublikadagi dorixonalar ta‘minoti ham bemorlarga sifatli tibbiy yordam beradigan holatda emas edi. Davolash muassasalarining 80 foizga yaqini sanitariya-gigienaning oddiy talablariga ham javob bera olmaydigan, eski, moslashtirilgan binolarda joylashgan, 70 foizida kanalizatsiya tarmoqlari va issiq suv tizimi mavjud bo‘lmasdan, hajmi 40 foizigina ichimlik suvi tarmoqlariga ulangan bo‘lib, apparatlar, zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanish imkoni yo‘q edi⁹⁰.

O‘zbekistonda avj olgan yuqumli kasalliklar bilan xastalanish darajasi yuqoriligining ildizlari avvalo, sovet tuzumi davrida respublika aholisining yashash va turmush sharoitlarining qoniqarli darajada emasligiga borib taqalar edi. Shu bilan birga, uzoq yillar davomida Respublika hududlari, ayniqsa, tabiiy iqlim sharoiti yaxshi bo‘lgan Farg‘ona vodiysining paxta maydonlariga aylantirilishi hamda uning hosildorligini yanada ko‘paytirish maqsadida 1970–1990-yillarda g‘o‘zaga ishlov berishning kimyoviy usullaridan keng foydalanildi⁹¹. Buning oqibatida mahalliy aholi orasida turli kasalliklarga chalinish holatlari ortib bordi. Chunki, kimyoviy o‘g‘itlar nafaqat havo, balki inson uchun zarur bo‘lgan ichimlik suvlari orqali ham aholi salomatligiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatayotgan edi.

Sovet davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin bo‘lgan Farg‘ona vodiysining ko‘pgina hududlarida turli xil kasalliklarga chalinish holatlari yuqori darajaga ko‘tarilgan edi. Bunday holat respublikaning boshqa viloyatlarida ham kuzatilib,

⁸⁹ Физиотерапия (юн. physis табиат ва therapy — даволамок) — клиник тиббиётнинг бир соҳаси; табиий (куёш нури, ҳаво, сув, шифобахш балчиқ) ва сунъий физик омиллар (электр токи, магнит майдони, сунъий ёруғлик манбалари, ультратовуш ва б.) таъсири механизмини ўрганади ва уларни даволашпрофилактика мақсадида қўллаш усулларини ишлаб чиқади. Бу ҳақда қаратг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2- том. — Тошкент: ЎЗМЕ, 2005. — Б. 132

⁹⁰ Орол, саломатлик ва муаммолар. Республика соғлиқни сақлаш вазири ўринбосари Р. Т. Султонов билан суҳбат // Сихат-саломатлик. — 1992. — №2. — Б. 5ю

⁹¹ Раҳимова. Г.С. Фарғона водийсининг иқтисодий ривожланишида экологик муаммолар. — , Тошкент: Navzo‘z, 2017. — Б. 2.

xususan o‘zbek ayollarining 80 foizi kamqonlik kasaliga chalingan, har 3 nafar o‘zbek yigitlaridan bittasi salomatligi tufayli harbiy xizmatga noloyiq deb topilgan edi⁹². Harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlar orasida sog‘lig‘i talab darajasida bo‘lmaganligi sababli ularning 20 foizdan ortig‘i jangovar qismlarda emas, balki qurilish bo‘limlarida xizmat qilar edi. Bunday holat ekologik va ijtimoiy vaziyat nisbatan o‘girroq bo‘lgan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yanada yuqoriroq edi⁹³. Bunga sabab qilib respublikaning asosan, sanoat qurilishi zonasi sifatida tarkib topganligi ko‘rsatilgan edi. Masalan, respublikada 1980-yillarda 1821 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning orasida og‘ir sanoat tarmoqlari-kimyoy, qurilish mollari ishlab chiqarish, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i, energetika va agrosanoat korxonalari yetakchilik qilar edi⁹⁴.

Shuningdek, O‘zbekistonda XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida sanoat korxonalari qurilishi o‘lkadagi boy resurslar va arzon ishchi kuchi hisobidan olib borildi. O‘z navbatida, ekologik omil hamda kundalik turmush tarzidagi xatolar aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Buning ustiga, aholi sog‘lig‘ini saqlash yuzasidan profilaktik tadbirlar o‘tkazish u yoqda tursin, shoshilinch tibbiy xizmat ko‘rsatish holati ham qoniqarli darajada emas edi. Xususan, 1980-yillarda birgina Namangan viloyatining o‘zida har 100.000 nafar chaqaloq yoshiga to‘lmay, vafot etgan. Bunga esa onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimining yetarlicha nazoratga olinmaganligi yoki ekologik hamda ijtimoiy ahvolning o‘ta og‘irligi deb qarash mumkin.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, muammolar sohada jiddiy o‘zgarishlar o‘tkazishni talab etar edi. Sovet tuzimining respublikada olib borgan siyosati tufayli, ta‘biy muhitda, ijtimoiy turmushda qator noqulayliklar yuzaga keldi. Xususan, markazning 1960-1970-yillarda respublikada olib borgan paxta yakkahokimligi siyosati hamda sanoat korxonalarining ko‘r-ko‘rona olib borgan faoliyati oqibatida,

⁹² Ёшлик. – 1989. – №5 – Б. 4–5.

⁹³ Ўйигит боши омон бўлсин / Ўзбекистон ССЖ соғлиқни сақлаш вазири муовини Б. У. Ўйдошев билан суҳбат // Сихат-саломатлик. – 1991. – №3. – Б. 4.

⁹⁴ O‘zbekiston Milliy arxivi (keying o‘rinlarda O‘zMA). R.837-fond, 41-ro‘yxat 1859-ish, 281-varoq.

1980-yillarning oxirlariga kelib, aholi salomatliga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Yuqorida ta‘kidlangan turli hil asoratlar sabab aholi orasida kasallikka chalinish holatlari ortib bordi. Yillar mobaynida yig‘ilib kelgan aholi salomatligini muhofaza qilish borasidagi muammolarni bartaraf etish, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Hamshira. №2.2018.– Б.3.
2. Abduxalimov A. Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi. –Toshkent “Nurafshon business” 2024 – B. 17.
3. Pestis – (lotincha) maraz, caedo – o‘ldiraman), zaharli kimyoviy moddalar – o‘simlik zararkunandalari va kasalliklari, begona o‘tlar, shuningdek, yog‘och, mahsulotlari, jun, teri zararkunandalari, uy hayvonlarining xavfli kasalliklari qo‘zg‘atuvchilariga qarshi kurashishda foydalaniladigan kimyoviy moddalar.
4. Abduxalimov A. Farg‘ona vodiysi sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi.–Toshkent “Nurafshon business” 2024 – B. 17.
5. Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60–80-йилларида Фарғона водийси кишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2020. – Б. 23.
6. Дезинфекция (дез... ва инфекция), юкүмсиэлантириш — юкүмли касалликларни кўзғатувчи микроорганизмлар (бактериялар, вируслар ва б.)ни йўқ қилиш. Бу ҳақда қаратг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2-том. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2005. – Б. 158
7. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (keying o‘rinlarda – O‘z ITTH). R. 62-fond, 1-ro‘yxat, 392-ish, 70-varaq.
8. O‘z ITTH Milliy arxivi. R. 62-fond, 1-ro‘yxat, 394-ish, 48-varaq.
9. O‘z ITTH Milliy arxivi. R. 40-fond, 4-ro‘yxat, 51-ish, 24-varaq.
10. Тажимирзаев Э. XX асрнинг 60–80-йилларида Фарғона водийси кишлоқлари аҳолисининг кундалик ҳаёти... Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2020. – Б. 83.
11. Физиотерапия (юн. physis табиат ва therapy — даволамоқ) — клиник тиббиётнинг бир соҳаси; табиий (куёш нури, ҳаво, сув, шифобахш балчиқ) ва сунъий физик омиллар (электр токи, магнит майдони, сунъий ёруғлик манбалари, ультратовуш ва б.) таъсири механизмини ўрганади ва уларни даволашпрофилактика мақсадида қўллаш усуллари ишлаб чиқади. Бу ҳақда қаратг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2- том. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2005. – Б. 132
12. Орол, саломатлик ва муаммолар. Республика соғлиқни сақлаш вазири ўринбосари Р. Т. Султонов билан суҳбат // Сихат-саломатлик. – 1992. – №2. – Б. 5ю

13. Раҳимова. Г.С. Фарғона водийсининг иқтисодий ривожланишида экологик муаммолар. – , Тошкент: Navzo‘z, 2017. – Б. 2.
14. Ёшлик. – 1989. – №5 – Б. 4–5.
15. Йигит боши омон бўлсин / Ўзбекистон ССЖ соғлиқни сақлаш вазирлиги муовини Б. У. Йўлдошев билан суҳбат // Сихат-саломатлик. – 1991. – №3. – Б. 4.
16. O‘zbekiston Milliy arxivi (keying o‘rinlarda O‘zMA). R.837-fond, 41-ro‘uxat 1859-ish, 281-varoq.
17. Холбоев М. К. Наманган вилояти ҳудудида

НАМАНГАН ФЕЛЬДШЕР-АКУШЕРЛИК МАКТАБИДАГИ ПЕДАГОГ КАДРЛАР ВА МУАММОЛАР (1950-ЙИЛЛАР)

Ферузахон Муталиповна Каримова

Фарғона давлат техника университети ассистенти

mutalipovna.85@icloud.com

1950-йиллар Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизими тарихида тиббиёт муассасаларининг кенгайиши, аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш қамровининг ортиши ва малакали тиббиёт кадрларига бўлган эҳтиёжнинг кескин ўсиши билан характерланади. Урушдан кейинги йилларда республикада касалхоналар, поликлиникалар, туғруқхоналар, фельдшер-акушерлик пунктлари ва санитария муассасалари тармоғи кенгайиб борди. Бу эса соғлиқни сақлаш тизими учун ўрта тиббиёт кадрларини тайёрлайдиган таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштиришни талаб қилди. Ана шундай муассасалардан бири Наманган фельдшер-акушерлик мактаби бўлиб, у вилоят ва унга туташ ҳудудлар учун фельдшерлар, акушеркалар, ҳамширалар ҳамда бошқа ўрта тиббиёт мутахассисларини тайёрлашда муҳим ўрин тутган.

Тиббиёт таълими тизими нафақат кадрлар тайёрлаш, балки давлатнинг ижтимоий сиёсати, миллий кадрлар етиштириш ва аҳолининг тиббий хизматга бўлган эҳтиёжини қондириш вазифаларини ҳам бажарган. Шу нуқтаи